

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**RAXIMJONOV KAMRONBEK ILXOMJON O‘G‘LI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV TIZIMIDA  
DAVLAT XARIDLARINI TAKOMILLASHTIRISH  
ISTIQBOLLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
economical sciences**

<b>Raximjonov Kamronbek Ilhomjon o'g'li</b> O'zbekiston Respublikasi IIV tizimida davlat xaridlarini takomillashtirish istiqbollari.....	3
<b>Рахимжонов Камронбек Илхомжон угли</b> Перспективы совершенствования государственных закупок в системе МВД Республики Узбекистан .....	29
<b>Rakhimjonov Kamronbek Ilhomjon ugli</b> Prospects for improving public procurement in the system of the MIA of the Republic of Uzbekistan.....	55
<b>E'lon qilingan ishlar ro'uxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	60

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**RAXIMJONOV KAMRONBEK ILXOMJON O‘G‘LI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV TIZIMIDA  
DAVLAT XARIDLARINI TAKOMILLASHTIRISH  
ISTIQBOLLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024 yil**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.4.PhD/Iqt3518 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Xudayqulov Xurshid Xurramovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Ismoilov Alisher Agzamovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Umarov Jasur Tursunovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 232-54-21, faks: (99871) 239-41-23, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 232-54-21, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**U.V. G'afurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda globallashuv va xalqaro integratsiya aloqalarining kuchayib borishi sharoitida fuqarolar uchun munosib turmush darajasi va farovon hayot shart-sharoitlarini ta'minlash hamda o'zining ko'p yo'nalishli funksiyalarini bajarishda davlatning mas'uliyat va sarf-xarajatlari oshib bormoqda. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda turli sohalarga investitsiya kiritish, aholining turmush darajasini ko'tarish hamda ijtimoiy vazifalarni bajarishga qaratilgan mazkur sarf-xarajatlar odatda davlat xaridlari ko'inishida amalga oshiriladi. "Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda davlat xaridlarining ulushi YaIMning 20-25 foiziga to'g'ri kelmoqda.<sup>1</sup> Ushbu ko'rsatkichlar AQShda 22,8 foizni, Xitoyda 21,7, Buyuk Britaniyada 25,1, Rossiyada 22,6, Turkiyada 42,6, Polshada 21,1 foizni tashkil etgan".<sup>2</sup> Mazkur jarayonlar ahamiyatining oshib borishi davlat xaridlarini bugungi kun talablariga mos ravishda takomillashtirib borishni talab qiladi.

Dunyo amaliyotida davlatning iqtisodiyotni tartibga solish jarayonlarini samarali tashkil etishga e'tibor kuchayib borishi bilan davlat xaridlariga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmogda. Davlat xaridlarini to'g'ri va samarali tashkil etish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatbardosh bozorni ta'minlash, davlat xaridlarini tashkil etishning uslubiy va tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini takomillashtirish, davlat xaridlarini amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish hamda samaradorligini baholash kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlovchi yetakchi tarmoq va sohalarni modernizatsiyalash, barqaror iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasini oshirishning samarali moliyaviy manbalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmogda. Davlat budjeti xarajatlarining manzilliligi va maqsadlilikini ta'minlash, ularni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, xususan davlat xaridlari tizimining samaradorligiga erishish borasida qator ta'sirchan choralar belgilangan. Jumladan, budjet mablag'laridan foydalanish jarayonida yuzaga kelayotgan turli xil noqonuniy pul aylanmalarining oldini olish, o'z navbatida, "budjet mablag'lari hisobidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishga yo'l qo'yimaslik, ochiq-oshkora tanlov va tenderlar o'tkazish amaliyotini kengaytirish"<sup>3</sup>, mazkur jarayonlarda raqamli platformalardan keng foydalanish natijasida "2023-yilda O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining davlat xaridlari bo'yicha xarid.uzex.uz elektron savdo tizimida jami 6,6 trln so'mlik 163 mingdan ziyod bitimlar tuzilgan bo'lib, ushbu bitimlarning hajmi 2022-yilga mos davriga nisbatan 1,4 marotabaga o'sgan".<sup>4</sup> Bu borada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish davlat xaridlari tizimining

<sup>1</sup> [https://uza.uz/oz/posts/davlat-xaridlari-tizimini-takomillashtirish-iqtisodiy-imkoniyatlarga-keng-yolochadi\\_426080](https://uza.uz/oz/posts/davlat-xaridlari-tizimini-takomillashtirish-iqtisodiy-imkoniyatlarga-keng-yolochadi_426080)

<sup>2</sup> <https://rosstat.gov.ru/storage/mediabank/world18.pdf>

<sup>3</sup> <https://www.spot.uz/oz/2023/10/20/state-budget/>

<sup>4</sup> <https://uzex.uz/fr/news/since-the-beginning-of-the-year-1-1-trillion-soums-of-public-funds-have-been-saved>

samaradorligini ta'minlash masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 5-dekabrdagi PQ-4544-son "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I."Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari" doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Davlat xaridlari tushunchasining mohiyatini ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy muammolari bo'yicha xorijiy iqtisodchi olimlarning turlicha yondashuvlari mavjud. Taraskina A.V., Dubskeya E.S., Gvozdareva L.P., Knyazev A.G., Makarov K.N., Rzun I.G., Rzun V.V., Smotritsskaya I.I., Degtev G.V., Semenova F.Z., Borlakova M.B., Botasheva L.S kabi xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida davlat moliyasini boshqarish va budjet mablag'larini nazorat qilish, shuningdek, davlat xaridlarni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.<sup>5</sup>

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini nazariy va amaliy rivojiga Burxonov U.A., Qosimova G.A., O'roqov U.Yu., Malikov T.S., Pulatov D.X., Nurmuxamedova B.I., Srojiddinova Z.X., Ibragimov A.K., Haydarov N.X., Umurzakov S.U., G'ofurov D.B., Atamuradov T.T., Umarov J.T., Akramov A.A., Turabov.S., kabi iqtisodchi olimlar katta hissa qo'shganlar.<sup>6</sup>

<sup>5</sup> А.В. Тараскина. Е.С. Дубская. Аудит в сфере закупок товаров, работ и услуг для обеспечения государственных и муниципальных нужд как метод оценки и эффективности. Бухгалтерский учёт в бюджетных и некоммерческих организациях . 2015 г. № 13 С 30-35. Гвоздарева Л.П., Князев А.Г., Макаров К.Н. Влияние социальной стабильности на уровень частных инвестиций // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2013. № 42. С. 51. Рзун И.Г., Рзун В.В. Зарубежный опыт проведения государственных закупок услуг строительства // Научные труды Куб ГТУ, 2015 г. № 9. -С8-10. Смотрицкая И. Экономика государственных закупок – М.: Книжный дом "ЛИБРОКОМ" 2009; Дегтев Г.В. Аудит в сфере закупок: сущность новации. Инновации и инвестиции. 2016 г № 11 С. 16-18. Семенова Ф.З, Борлакова М.Б, Боташева Л.С. Зарубежный опыт осуществления государственных закупок" // Фундаментальные исследования, 2016 г. № 6. С. 465-469.

<sup>6</sup> Burxonov U.A. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma, -Toshkent; Infocom.uz 2010. -10 b; Qosimova G.A. G'aznachilik tizimida davlat xaridining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari//Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. – T., 2019. - № 2 (aprel). U.Yu. O'roqov. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma. - T.:«Nihol print» OK, 2022. 200b. Malikov T.S.. Moliya. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya 2018. 169 b; Pulatov D.X. Davlat xaridlarida xususiy sektorning hamkorligi. // Jamiyat va boshqaruv // Toshkent, 2018 yil. 1-son, 102-b; Pulatov D.X., Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. -T.: "Sano-standart", 2014. 272 b; Srojiddinova Z.X.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida davlat xaridlari masalalari nazariy jihatdan yoritib berilgan bo‘lsada, biroq mamlakatimiz davlat xaridlariga ta’sir etuvchi turli omillarni inobatga olgan holda baholash mezonlari va ularni takomillashtirish yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shuningdek, budget tashkilotlarida moliya yilining boshlanishida budget mablag‘larini sarflanishida bir qancha omillarning mavjudligi ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borilmaganligi mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishiga asos bo‘ldi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №FM-1 «O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish» yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida davlat xaridlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

davlat xaridlarini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish;

davlat xaridlarini tashkil etishning xorijiy davlatlar tajribalarini o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berish;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida davlat xaridlarining tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini ochib berish;

O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini amalga oshirishning amaldagi holatini tahlil qilish va muammolarni aniqlash;

davlat xaridlarini amalga oshirishda xorijiy davlatlar tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida davlat xaridlarini amalga oshirishdagi muammolar va ularni bartaraf qilish yo‘llarini ochib berish;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida davlat xaridlarini takomillashtirish yo‘llari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimidagi davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmi tanlangan.

---

O‘zbekiston Respublikasi budget tizimi. -T.: “infocom.uz”. 2010. 480 b; Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B. Budget nazorati va auditi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “infocom.uz”. 2009. 192 b; Haydarov N.X., Davlat moliyasini boshqarish. -T.: Akademiya, 2005 y; Malikov T.S., Jalilov P.T. Davlat budjeti daromadlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. -T.: Iqtisodiyot, 2014; Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat moliyasi. Toshkent moliya instituti. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014 y; Umurzakov S.U. G‘aznachilik organlarining integrallashgan axborot tizimlari faoliyatini optimal tashkil qilish jarayonlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. 20-bet. D.B. G‘ofurov O‘zbekistonda davlat va korporativ xaridlar jarayonini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. 26-bet; Burxonov U.A., Atamuradov T. Davlat xaridi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent moliya instituti -Toshkent; Iqtisod-Moliya, 2011 y. 15- b; Umarov J.T.«Davlat xaridlari tizimini takomillashtirishning metodologik jihatlari» Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. 18 -bet

**Tadqiqotning predmetini** Ichki ishlar vazirligi tizimidagi davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, statistik ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy tahlil, tanlama kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

davlat xaridi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar imzolangandan so'ng shartnoma ma'lumotlarini uch ish kunida buyurtmachi tashkilotning maxsus axborot portalida e'lon qilish orqali xarid qilinadigan tovarlarning qiymatini bozor qiymati bilan muvofiqligini ta'minlash hamda ularni sun'iy ravishda oshirishning oldini olish asoslangan;

davlat xaridlari bo'yicha tender savdolarini o'tkazishda tashkilot va korxonalarda tuzilgan maxsus komissiya raisi va a'zolarining affillanganlik xususiyatiga aloqador tashkilotlar qatnashganligi holati aniqlanganda tender savdolarini vaqtinchalik to'xtatish va yangi komissiya a'zolarini tayinlash orqali xarid ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini qo'llab-quvvatlash asoslangan;

davlat xaridlari elektron tizimi operatori faoliyatini amalga oshirishda bazaviy hisoblash miqdorining 25 ming baravaridan kam bo'lmagan va to'liq shakllantirilgan ustav (kapital) jamg'armasini ta'minlash orqali budjet tashkilotlarida muddati o'tgan debitor va kreditor qarzdorliklari vujudga kelishining oldini olish hamda moliyaviy risklardan himoya qilish asoslangan;

davlat xaridlari bo'yicha ishtirokchilar tomonidan kiritiladigan tanlov savdolarini amalga oshirishda xarid summasining 3 foizi miqdorida hamda tender savdolarini amalga oshirishda xarid summasining 5 foizi miqdorida zakalat kiritilishi orqali shartnoma majburiyatlarining to'liq bajarilishi hamda yetkazib beruvchining ma'suliyatini oshirish asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

davlat buyurtmachilari tomonidan sotib olinadigan tovar-moddiy qimmatliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni buyurtmachi tashkilot orqali shartnomalarning umumiy qiymatini bozor konyunkturasi bilan muvofiqligini ta'minlash asoslangan;

davlat buyurtmachilari tomonidan xarid jarayonini tashkil etishda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va tender savdolarini sog'lom raqobatga asoslangan holda amalga oshirish tavsiya etilgan;

davlat xaridlari bilan bog'liq moliyaviy risklarni pasaytirish maqsadida xarid jarayonida ishtirok etayotgan tadbirkorlik subyektlarining kapital miqdorini me'yorini belgilash orqali budjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik qarzdorligini boshqarish asoslab berilgan;

buyurtmachi tashkilotlar davlat xaridlarini amalga oshirish uchun tanlov va tender savdolari o'tkazishda ishtirokchilar tomonidan kiritiladigan zakalat miqdorini soddalashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ularni mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning davlat xaridlari borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va umumlashtirish, muallifning ushbu

sohada olib borgan tadqiqot natijalari, rasmiy statistik ma'lumotlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot davomida ishlab chiqilgan xulosa va takliflardan davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanish, ularning natijadorligini oshirish, mavjud moliyaviy tizimni barqarorlashtirish hamda davlat xaridlari tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya tadqiqoti davomida ishlab chiqilgan amaliy tavsiya va materiallardan davlat xaridlari mexanizmini yanada takomillashtirish, shuningdek, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi oliy o'quv yurtlarida davlat moliyasiga aloqador mutaxassisliklar uchun "Davlat xaridlari" fanlari bo'yicha o'quv dasturini takomillashtirishda va fanni o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida davlat xaridlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

davlat xaridi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar imzolangandan so'ng shartnoma ma'lumotlarini uch ish kunida buyurtmachi tashkilotning maxsus axborot portalida e'lon qilish orqali xarid qilinadigan tovarlarning qiymatini bozor qiymati bilan muvofiqligini ta'minlash hamda ularni sun'iy ravishda oshirishning oldini olish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sonli "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomda o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 6-apreldagi 3/1-987-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida buyurtmachi tashkilotlar xarid qiladigan tovarlarning qiymatini bozor qiymati bilan muvofiqligini ta'minlash, buyurtmachi tashkilotlar tomonidan xaridlar tarkibidagi tovarlarning qiymatini sun'iy oshirishning oldini olish imkoni yaratilgan;

davlat xaridlari bo'yicha tender savdolarini o'tkazishda tashkilot va korxonalarda tuzilgan maxsus komissiya raisi va a'zolarining affillanganlik xususiyatiga aloqador tashkilotlar qatnashganligi holati aniqlanganda tender savdolarini vaqtinchalik to'xtatish va yangi komissiya a'zolarini tayinlash orqali xarid ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini qo'llab-quvvatlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sonli "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomda o'z ifodasini topgan (O'zbekiston

Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 6-apreldagi 3/1-987-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida davlat xaridlarida halol raqobat muhitini yaratish hamda budget mablag'laridan ratsional foydalanish imkoni yaratilgan;

davlat xaridlari elektron tizimi operatori faoliyatini amalga oshirishda bazaviy hisoblash miqdorining 25 ming baravaridan kam bo'lmagan va to'liq shakllantirilgan ustav (kapital) jamg'armasini ta'minlash orqali budget tashkilotlarida muddati o'tgan debitor va kreditor qarzdorliklari vujudga kelishining oldini olish hamda moliyaviy risklardan himoya qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-dekabrda "Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 734-son qarorida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 6-apreldagi 3/1-987-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida davlat buyurtmachilari va davlat xaridlari tizimidagi moliyaviy risklarni himoya qilish tizimini kuchaytirishga olib kelib, budget tashkilotlarida muddati o'tgan debitor va kreditorlik qarzdorlik shakllanishining oldini olishga xizmat qilgan;

davlat xaridlari bo'yicha ishtirokchilar tomonidan kiritiladigan tanlov savdolarini amalga oshirishda xarid summasining 3 foizi miqdorida hamda tender savdolarini amalga oshirishda xarid summasining 5 foizi miqdorida zakalat kiritilishi orqali shartnoma majburiyatlarining to'liq bajarilishi hamda yetkazib beruvchining ma'suliyatini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-dekabrda "Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 734-son qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 6-apreldagi 3/1-987-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida ishtirokchilar tomonidan beriladigan tijorat takliflarning ishonchliligi, tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni to'liq bajarilishi majburiyligi hamda yetkazib beruvchining ma'suliyatini oshirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 3 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, bundan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 106 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini tashkil etishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida davlat xaridlarini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari, davlat xaridlarini tashkil etishning xorij davlatlari tajribasini o‘ziga xos xususiyatlari va O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi tizimida davlat xaridlarining tashkiliy-iqtisodiy jihatlari yoritib berilgan. Adabiyotlar sharhi va tahlillari, “Davlat va korporativ xaridlar” tushunchasiga mualliflar tomonidan turlicha tariflar berilganligi, xususan bu borada xorijlik olimlarning bildirgan fikrlari xilma-xilligiga guvoh bo‘lamiz.

Davlat xaridlarini sohasini tadqiq qilish bo‘yicha chuqur izlanishlar olib borgan mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan biri U.Burxonov tomonidan ushbu sohani amalga oshirish jarayoniga quyidagicha ilmiy ta’rif shlab chiqilgan, ya’ni davlat xaridlari – bu “davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar xisoblanadi.”<sup>7</sup>

G. Qosimovaning fikriga ko‘ra, davlat xaridiga e’tibor uning ahamiyatidan kelib chiqadi. Birinchidan, davlat xaridi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda eng katta ahamiyatga ega bo‘lgan davlat sektori ishlashi uchun zarur bo‘lgan tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o‘z vaqtida ta’minlab turadi. Ikkinchidan, davlat budjeti xarajatlarining katta qismini tashkil etuvchi davlat xaridi uning barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun davlat xaridi miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish uchun ularning yuqori samaradorligini ta’minlash o‘ta muhimdir. Uchinchidan, davlat xaridi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda foydalaniladigan kuchli vosita ekanligi, deb qayd etib o‘tiladi.<sup>8</sup>

J.Umarovning fikricha, davlat xaridlari tizimi milliy iqtisodiyotni tartibga solishining muhim institutlaridan biri hisoblanib, aralash iqtisodiyot sharoitida davlat talabini bir qator tarmoqlar mahsulotining iste’molchisi, uning miqdori va tarkibiga ta’sir ko‘rsatadigan iqtisodiyotni tartibga solishning kuchli vositasi ekanligi ta’kidlangan.<sup>9</sup>

Davlat xaridlari bo‘yicha ko‘plab xorijiy iqtisodchi olimlar ham o‘z nazariyalari va fikrlarini bildirishgan. Xususan, davlat va korporativ xaridlar borasida tadqiqot olib borgan.

<sup>7</sup> Burxonov U.A. Davlat xaridi. O‘quv qo‘llanma, -Toshkent; Infocom.uz 2010. -10 b;

<sup>8</sup> Qosimova G.A, Vahobov A.V. Davlat moliyasini boshqarish. O‘quv qo‘llanma.– Toshkent, 2008. – 78 bet.

<sup>9</sup> Umarov J. Davlat xaridlari tizimini takomillashtirishning metodologik jihatlari. 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kpedit. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2021.

Rossiyalik olim V.Ovchinskiy davlat ehtiyojlarini ta'minlash iqtisodiy samaradorligini aniqlash davlat buyurtmachilari talablarini shakllantirish bilan bo'g'liqligini ta'kidlagan. Bunda, birinchidan, davlat xaridlarini rejalashtirishda buyurtmalarni yetkazib berish boshlang'ich (maksimal) narxlarini asoslash muhim hisoblanadi va buyurtmachi asosiy rolni o'ynaydi. Ikkinchi bosqichda shartnomalarni bajarish uchun ishlarni amalga oshirish o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, yetkazib beruvchi asosiy rolga ega bo'ladi, deb ta'rif bergan.<sup>10</sup>

L.V. Andreyeva boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq, davlat xaridlarining huquqiy masalalarini o'rganishda davlat ehtiyojlarini mustaqil ma'noga ega bo'lgan huquqiy tushuncha ekanligini alohida ko'rsatib o'tgan. Bunda davlat buyurtmachilarining funktsiya va vakolatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan davlat ehtiyojlarining tarkibiga tovar, ish va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni xam o'z ichiga oladi.<sup>11</sup>

Smotritskaya I.I., Skutelnik O.A. va Ilyuxin V.V., kabi xorijlik iqtisodchi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida davlat xaridi va davlat buyurtmasi tushunchalarini birlashtirib, davlat xaridi davlat ehtiyojlari uchun tovar, ish va xizmatlarni xarid qilishning, ya'ni davlat buyurtmasini amalga oshirishning so'nggi yakunlovchi bosqichi, degan fikrni ilgari surganlar.<sup>12</sup>

Yuqoridagi atamalarning har tomonlama tahlilidan kelib chiqib, biz davlat buyurtmasi va davlat xaridi tushunchalari bir-biriga o'xshash degan fikrga kelishimiz mumkin. Bu sohaning qonunchilikda ma'muriy va fuqarolik me'yorlar bilan tartibga solinishini hisobga olib, davlat xaridi tushunchasi ancha oldin shakllanganligi va hozirgi kunda iqtisodchi, moliyachi va tahlilchilar tomonidan davlat ehtiyojlari uchun buyurtmalarni joylashtirishni tartibga solish sohasida tushuncha va terminlarni o'xshash talqin etish maqsadida foydalanayotganliklarini inobatga olib, davlat buyurtmasi tushunchasini qonun jihatdan mustahkamlab qo'yilishini taklif etamiz.

Ushbu nazariy tadqiqotlar natijasida budjet tashkilotlaridagi amalga oshiriladigan davlat xaridlariga mualliflik ta'rifi berildi, ya'ni davlat xaridlari - bu jamiyatning ma'lum bir darajadagi iqtisodiy talablarini qondirish maqsadida davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini ma'lum bir xarajatlarni budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan ta'minlash jarayoni ekanligi aniqlandi.<sup>13</sup>

Quyidagi 1-rasmda O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarni amalga oshirish turlarini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek davlat xaridlarini tartibini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha vakolatli organ Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan belgilangan.


---

<sup>10</sup> Овчинский В.А. Развитие института федеральной контрактной системы: автореферат ... к.э.н. - Российский государственный гуманитарный университет. - Москва, 2013. - С.23.

<sup>11</sup> Андреева Л.В. Закупки товаров для федеральных государственных нужд: правовое регулирование. М.: Волтерс Клувер, 2009. С. 24.


<sup>12</sup> Смотрицкая И.И. Указ. соч. С. 7; Скutelный О.А. Государственные закупки в системе обеспечения национальной безопасности: понятие и принципы. Доклад по проблемам правового регулирования размещения заказов на поставки товаров для государственных нужд // [www.rea.ru](http://www.rea.ru) - официальный сайт РЭА им. Г.В. Плеханова

<sup>13</sup> Muallif tomonidan mustaqil ravishda mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi.



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasida davlat va korporativ xaridlarni amalga oshirish turlari<sup>14</sup>**

Amaliyot shuni tasdiqlamoqdaki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va korporativ xaridlar bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi respublikamizda ham davlat xaridlarini samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratilganligi ko'rishimiz mumkin. Davlat xaridlari tizimini yanada isloh qilish, innovatsion texnologiyalar va ilg'or xorijiy davlatlar tajribalarini joriy etish orqali davlat xaridlari samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.



**2-rasm. Davlat buyurtmasini amalga oshirish sxemasi va jarayoni<sup>15</sup>.**

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22 aprel kunidagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ushbu rasmda O‘zbekiston Respublikasi davlat buyurtmachisining davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni ko‘rsatilgan bo‘lib, xarid jarayonining barcha bosqichlarida buyurtmachini halol raqobat muhitida elektron ravishda tashkil etilishini talab qiladi.

Budjet va korporativ buyurtmachilarning davlat xaridlarini tashkil etishda rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, xususan Rossiya, AQSh davlatlari va Yevropa ittifoqi kabi tashkilotlarning boy amaliyotini hamda ularning ijobiy tajribalarini mamlakatimiz davlat xaridi tizimini boshqarishda samarali mexanizmlarini joriy etishda qo‘llash muxim ahamiyat kasb etadi.

## 1-jadval

### Xarid jarayonlarining tashkil etilishi bo‘yicha afzallik va kamchiliklari to‘g‘risida tahliliy-ma‘lumot<sup>16</sup>

Markazlashgan		Markazlashmagan	
Afzalliklari	Kamchiliklari	Afzalliklari	Kamchiliklari
1) Vazirlik yoki qo‘mitalarning har bir bo‘linmasi kerakli sotib olinadigan tovar (ish) xizmatlarni mustaqil belgilaydilar	1)Xarajatlarning yuqori darajasi	1)Sotib olinadigan tovar (ish) xizmatlarning yagona organ tomonidan amalga oshirilishi sababli katta hajmdagi xaridlar past narxlarda sotib olish imkoniyati mavjudligi	1) Sotib olinadigan tovar (ish) xizmatlarni amalga oshirishda buyurtmalarni o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinmasligi
2) Mustaqillik tufayli yuqori darajadagi moslashuvchanlikka egaligi			


Yuqoridagi 1-jadvalda xarid jarayonining tashkil etish tizimi o‘rganilib, ularning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilindi. Shuningdek, mazkur bobda respublikamizda amalga oshiriladigan xarid tizimini takomillashtirishning nazariy, uslubiy va huquqiy asoslari ochib berilib, bob yakunida mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Tadqiqot ishining **“O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi tizimida davlat xaridlarini tashkil etishning amaldagi holati tahlili”** deb nomlangan bobida davlat xaridlarini amalga oshirishning amaldagi holati tahlili, O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimida davlat xaridlari amalga oshirishning amaldagi holati tahlili va davlat xaridlarini amalga oshirishda xorijiy davlatlar tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari izohlab berilgan.

<sup>15</sup> U.Yu.O‘roqov. Davlat xaridi T.: «Nihol print» OK, 2022. 200 b. ma‘lumotlariga asosan muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.

<sup>16</sup> Olib borilgan tadqiqot natijasida muallif tomonidan mustaqil tayyorlangan

Mamlakatimizda davlat xaridlari tizimini rivojlanishini shartli ravishda to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin.



### 3-rasm O‘zbekistonda davlat xaridlari tizimini rivojlanish bosqichlari<sup>17</sup>

Davlat xaridlari tizimining rivojlanishining to‘rtinchi bosqichi 2021-yil 22-apreldan keyingi davrda qator yangilik va o‘zgartirishlar kiritilgan. Korporativ buyurtmachi va strategik ahamiyatga ega xo‘jalik jamiyatlari va korxonalar tomonidan xaridlarni amalga oshirish tizimi takomillashtirildi. Ustav fondida davlat ulushi 50 foizdan ko‘p bo‘lgan hamda davlat korxonalari va davlat ulushi 50 foizdan ko‘p bo‘lgan korxonalar ulushining yig‘indisi 50 foizdan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar korporativ buyurtmachilar ro‘yxatiga kiritilgan. Davlat aktivlarini

<sup>17</sup> U.Yu.O‘roqov. Davlat xaridi T.: «Nihol print» OK, 2022. 200 b. ma’lumotlariga asosan muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.

boshqarish agentligi bilan hamkorlikda korporativ buyurtmachilar ro'yxatini maxsus axborot portalida yuritilishi belgilangan.

## 2-jadval

### 2018-yil 9-apreldan 2021-yil 22-iyulgacha amalda bo'lgan davlat xaridlari tartib-taomillari <sup>18</sup>

EKOIH – eng kam oylik ish haqiga nisbatan

Xarid turi	Xarid predmeti	Budjet buyurtmachisi	Korporativ buyurtmachi
Elektron do'kon	Tovar	25 EKOIH * gacha	250 EKOIH gacha
	Bir yilda 2500 EKOIH dan ortiq bo'lmagan		
	ish, xizmat	25 EKOIH gacha	25 EKOIH gacha
Auksion	Tovar	2 500 EKOIH gacha	5 000 EKOIH gacha
Tanlov (konkurs)	Tovar	2 500 dan -6 000 gacha EKOIH orasida	5 000 dan - 25 000gacha EKOIH orasida
	ish, xizmat	25 dan - 6 000 gacha EKOIH orasida	25 dan - 25 000 gacha EKOIH orasida
Tender	tovar, ish, xizmat	6 000 EKOIH dan yuqori	25 000 EKOIH dan yuqori
Yagona yetkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan davlat xaridlari	tovar, ish, xizmat	Alohida me'yor belgilanmagan	

Yuqoridagi 2-jadvalda berilgan ma'lumotlarda budjet va korporativ xarid turlarining o'ziga xos tomonlari ko'rsatilgan bo'lib, har bir xarid turiga alohida yondoshuvni talab qiladi deb xulosa qilish mumkin.

2018-yil 9-aprelda qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun bilan amaliyotga kiritilgan asosiy yangiliklar:

1. Qonun xaridlarning besh tartib-taomili (turi)ni belgilagan, ya'ni elektron do'kon, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion, tanlov, tender, yagona yetkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan davlat xaridlari. Bulardan ikkitasi (elektron do'kon, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion) davlat xaridi bo'yicha qaror qabul qilishda inson omilini

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasining 09.04.2018-yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-472-son Qonuni asosida muallif tomonidan tuzildi.

butkul inkor etardi. Qolgan xarid tartib-taomillari shaffofligi maxsus axborot portalida zarur axborot chop etish yo‘li bilan ta’minlangan.

2. Xarid tizimida davlat buyurtmachisining ikkita kategoriyalari birlashtirildi. Bular - budjet buyurtmachilari (davlat organlari, budjet tashkilotlari, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan budjet mablag‘larini oluvchilar, davlat maqsadli jamg‘armalari) hamda korporativ buyurtmachilar (davlat korxonalari, ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar, ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig‘i 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar).

### 3-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligida davlat xaridlarini amalga oshirish mezonlari<sup>19</sup>

(bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan)

Buyurtmachi turi	Xarid predmeti	Xarid qilish tartib taomillarini amalga oshirish bo‘yicha				
		Elektron do‘kon	Auksion	Elektron tanlov	Elektron tender	To‘g‘ridan to‘g‘ri savdolar
Byudjet buyurtmachilari uchun	Tovar	2500 gacha	6000 gacha	6000 gacha	6000 dan yuqori	X
	Ish va xizmat	50 gacha	X	6000 gacha	6000 dan yuqori	X
	Bir turdagi tovarlar bo‘yicha	Bir moliya yilida 10 000 gacha	X	X	X	X
	Bir turdagi ish va xizmat bo‘yicha	Bir moliya yilida 500 gacha	X	X	X	X
Korporativ buyurtmachilari uchun	tovar	25000 gacha	25000 gacha	25000 gacha	25000 dan yuqori	25000 dan yuqori
	Ish va xizmat	100 gacha	X	25000 gacha	25000 dan yuqori	25000 dan yuqori
	Bir turdagi tovarlar bo‘yicha	X	X	X	X	X
	Bir turdagi ish va xizmat bo‘yicha	Bir moliya yilida 1000 gacha	X	X	X	X

Yuqoridagi 3-jadvalda berilgan ma’lumotlarga asosan davlat xaridlarini amalga oshirishda ochiqlik, shaffoflik, xolislik va budjet mablag‘laridan

<sup>19</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi 276-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan muallif tomonidan tayyorlangan

foydalanishda oqilonalik, tejamkorlik va samaradorlikka qat'iy rioya qilishni talab qiladi deb xulosa qilish mumkin.

#### 4-jadval

### Exarid.uzex.uz maxsus axborot portalida 7531-harbiy qism tomonidan to'g'ridan-to'g'ri imzolangan shartnomalar bo'yicha xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati.<sup>20</sup>

ming so'mda

Ko'rsatilgan xizmatlar	Iqtisodiy klassifikator bo'yicha	Amalga oshirilgan xarid turlari	2022 yil	2023 yil	Nisbiy o'zgarish ko'rsatkichlari mln so'mda	Nisbiy o'zgarish ko'rsatkichlari %
Kommunal xizmatlar	42 21 000	Elektr energiya	714 154,0	957 458,6	243 304,6	34
	42 22 000	Tabiiy gaz	386 613,4	483 600,5	96 987,10	25
	42 24 000	Sovuq suv va oqava	25 500,0	29 365,6	3 865,6	15
	42 25 000	Chiqindilarni chiqarishi xizmatlari	11 173,9	14 745,2	3 571,3	31
Dezinfeksiya va dezinseksiya xizmatlari uchun	42 32 200	Dezinfeksiya va dezinseksiya xizmatlari uchun	39 602,2	46 491,6	6 889,4	17
Ovqatlantirish xizmati uchun	42 52 300	Ovqatlantirish xizmati uchun	12 154 174,7	16 685 705,8	4 531 531,1	37
Xizmat avtotransportlari ta'mirlash uchun	43 33 100	Xizmat avtotransportlari ta'mirlash uchun	1 089 464,5	1 097 237,0	7 772,5	0.71
YoMM sotib olish uchun	42 52 500	YoMM sotib olish uchun	1 004 961,4	1 064 968,6	60 007,2	5.97
Aloqa xizmati uchun	42 92 100	Aloqa xizmati uchun	67 416,9	89 654,6	22 237,7	32
Internet xizmati uchun	42 92 200	AK Internet xizmati uchun	4 260,00	4 568,4	308,4	7.2
<b>JAMI</b>			<b>15 497 321,00</b>	<b>20 473 796,10</b>	<b>4 976 475,10</b>	

Keltirilgan 4-jadvaldagi ma'lumotlarga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to'g'risida»gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi

<sup>20</sup> <https://exarid.uzex.uz/ru/profile/bestoffers> ma'lumotlariga asoslanib muallif tomonidan tayyorlangan

PQ-3953-sonli qaroriga asosan 2022 yilda jami 15 497 321,0 ming so‘m, 2023-yilda esa jami 20 473 796,1 ming so‘mga xaridlar amalga oshirilgan.

Davlat xaridlari tizimida shoshilinch yoki ko‘zda tutilmagan zaruriyat yuzaga kelgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning elektron katalog orqali xarid qilinishi vaqtini tejash bilan birgalikda budget mablag‘larini samarali foydalanish imkoniyati shakllangan (4-jadvalga qarang). Davlat buyurtmachilarining elektron savdo orqali xaridlarni elektron raqamli imzodan foydalangan holda o‘zlari uchun yaratilgan savdo maydonchalari orqali amalga oshiradilar. Davlat buyurtmachilarining elektron savdolar orqali xaridlarni amalga oshirishi uchun yaratilgan savdo maydonchalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni 5-jadvalda batafsil ko‘rishimiz mumkin.

### 5-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan xaridlarni savdo maydonchlari to‘g‘risida ma‘lumot<sup>21</sup>

Xarid turlari	Xarid qilish tartib taomillarini amalga oshirish bo‘yicha				
	Elektron do‘kon	Auksion	Elektron tanlov	Elektron tender	To‘g‘ridan to‘g‘ri savdolar
Davlat xaridlari	e.tender.uzex.uz	e.tender.uzex.uz	e.tender.uzex.uz	e.tender.uzex.uz	e.tender.uzex.uz
	d.xarid.uzex.uz		d.xarid.uzex.uz	d.xarid.uzex.uz	d.xarid.uzex.uz
	milliydo‘kon.uzex.uz		e.xarid.uzex.uz		
Korporativ xaridlar	xarid.uzex.uz	xarid.uzex.uz	xarid.uzex.uz	xarid.uzex.uz	xarid.uzex.uz -
	-	-	-	-	d.xarid.uzex.uz
	emilliydo‘kon.uzex.uz	-	-	-	-

Yuqoridagi 5-jadvalda savdo maydonchalari orqali amalga oshiriladigan xaridlar natijasida davlat xaridlari subyektlari va jamoatchilik uchun erkin holda tanishib chiqish hamda nazorat qilish imkoniyatini ta‘minlashga erishilgan. Shuningdek, kelgusidagi davlat xaridlarining reja-jadvallari va e‘lonlar savdo maydonchlari orqali elektron davlat xaridlari tizimiga joylashtirilishi ta‘minlangan.

Ushbu printsipning maqsadi davlat xaridlarini amalga oshirishda davlat buyurtmachisining davlat xaridlarini o‘tkazish xarajatlarini va tovarlarning (ish, xizmatlarning) qiymatini hisobga olish, xaridlar uchun ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish, shu jumladan tovarlarni (ish, xizmatlarni) olishdan ko‘rilgan naf, ularning sifati va qiymati o‘rtasidagi maqbul nisbatni ta‘minlash, davlat xaridlarini maqbul muddatlarda o‘tkazish imkonini beradigan oqilona va tejamkor usulda amalga oshirish kerakligidir.

Quyida keltirilgan 6-jadvaldagi ma‘lumotlarga asosan xulosa qilishimiz mumkinki, davlat xaridlarining muhim prinsiplaridan biri bo‘lgan moliyaviy

<sup>21</sup> Muallif tomonidan olib borilayotgan tadqiqot jarayonida tayyorlangan

manbaalardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi natijasida 2023-yilda imzolangan bitimlar soni 2021-yilga nisbatan 19 taga, xarid ishtirokchilarining soni o‘rtacha 2 taga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

## 6-jadval

### Exarid.uzex.uz maxsus axborot portalida 2021-2023 yillarda IIV 7531- harbiy qismda boshlang‘ich zakalat miqdori kiritilgandan so‘ng xarid ishtirokchilarining o‘zgarganligi bo‘yicha taqqoslash jadvali <sup>22</sup>

Amalga oshirilgan xaridlar	2021 yil 1 yarim yillik	2021 yil 2 yarim yillik	2022 yil 1 yarim yillik	2022 yil 2 yarim yillik	2023 yil 1 yarim yillik	2023 yil 2 yarim yillik
Amalga oshirilgan bitimlar soni, dona	47	49	62	51	66	68
Xarid ishtirokchilarining soni (har bir bitimga o‘rtacha )	10	10.2	10.2	10.3	11	11.5
Eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali tuzilgan bitimlar soni, dona	20	22	18	19	22	14
tuzilgan bitimlarning jami bitimlardagi ulushi soni, foizda	42,5%	44,8%	29,0%	37,2%	33,3%	20,5
Xarid ishtirokchilarining soni (har bir bitimga o‘rtacha )	3	3.2	3.1	3.3	4.7	4.5

Olib borgan tadqiqotimizning yana bir ilmiy yangiligi shundan iboratki, davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar imzolangandan so‘ng, tuzilgan shartnomaning ma‘lumotlarini 3 ish kuni ichida buyurtmachi tashkilotning maxsus axborot portalida e‘lon qilish natijasida davlat buyurtmachilari xarid qiladigan tovarlarning qiymatini bozor qiymati bilan muvofiqligini ta‘minlashga, xaridlar tarkibidagi tovarlarning qiymatini sun‘iy oshirishning oldini olishga erishilgan (4-rasm).

Ushbu jarayon xarid bosqichining rejalashtirilishidan boshlab bozor holatini o‘rganish, yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzish, maxsus elektron portalga

<sup>22</sup> <https://exarid.uzex.uz/ru/profile/bestoffers> ma‘lumotlariga asoslanib muallif tomonidan tayyorlangan



fikrimizcha, davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha asosiy muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 aprel kunidagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ 684 son qonunining 62 moddasida eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali aniqlangan g'olib korxonalar (tashkilotlar)lar haqidagi imzolangan bayonnoma 2 (ikki) ish kuni mobaynida maxsus axborot portalida muxokamada turishi lozimligi belgilangan. Amaldagi budjet kodeksining tegishli moddalariga asosan tashkilotlar o'rtasida imzolangan shartnomalar g'aznachilik organlaridan ro'yxatdan o'tkazilishi belgilangan. Ushbu shartnomalarning ro'yxatga olishning oxirgi muddati 25 dekabr kilib belgilangan. Budjet tashkilotlarida moliya yilining yakunida mablag'larning ajratilishi esa o'z navbatida ushbu ajratilgan mablag'larning ishlatilmasdan qolishiga va Iqtisodiyot va moliya vazirligi yagona g'azna xisob-varag'iga qaytarilishiga sabab bo'lmoqda.

